



**QIMMATLI QOG'OZLAR
MARKAZIY DEPOZITARIYSINING
2024 YILNING 9 OYI DAVOMIDAGI
FAOLIYATI NATIJALARI TO'G'RISIDAGI
HISOBOT**


▲ 21.43

QIMMATLI QOG'OZLAR MARKAZIY DEPOZITARIYSINING 2024 YILNING 9 OYI DAVOMIDAGI FAOLIYATI NATIJALARI TO'G'RISIDAGI HISOBOT

2024 yilning 01 oktyabridagi holatga ko'ra, Markaziy depozitariyda 680 aksiyadorlik jamiyatining 205 822,36 mlrd.so'm umumiy nominal qiymatga ega 23 117,53 mlrd. dona aksiya chiqarilishlari hisobi yuritilmoqda.

2024 yilning 9 oyi davomida aksiya chiqarilishlari hajmi 16 110,24 mlrd. so'mga, aksiyalarning soni esa 5 170,13 mlrd. donaga ko'paydi.

Markaziy depozitariyda shuningdek, 39 emitent tomonidan chiqarilgan 1405,7 mlrd.so'm umumiy miqdorga ega 1,26 mln.dona korporativ obligatsiyalar hisobi yuritiladi. Ularning 801,5 mlrd.so'm umumiy miqdorga ega 695,2 ming donasi 32 MChJ tomonidan chiqarilgan.



I. Davlat aktivlarini saqlash va hisobini yuritish

01.10.2024 yildagi holatga ko'ra, 262 ta aksiyadorlik jamiyatidagi davlat ulushi 165 218,6 mlrd.so'mni tashkil etdi (shu jumladan, Markaziy depozitariyda 240 aksiyadorlik jamiyatining 165 136,9 mlrd.so'm miqdordagi davlat ulushi hisobi yuritilmoqda). 2024 yilning 9 oyi davomida ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari soni 23 taga, mavjud davlat ulushi hajmi esa 7 002,1 mlrd.so'mga ortdi.

Xo'jalik boshqaruvi organlarining 101 AJ ustav fondidagi ulushlari hajmi 4 761,1 mlrd.so'mni tashkil etdi. 2024 yilning 9 oyi davomida xo'jalik boshqaruvi organlari aktivlarining hajmi 912,3 mlrd.so'mga ortdi, AJlar soni esa 34 taga kamaydi.

II. Qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga xizmat ko'rsatish

Markaziy depozitariy O'zbekiston Respublikasi depozitar tizimida qimmatli qog'ozlarning yagona hisobi yuritilishini ta'minlaydi. 2024 yilning 9 oyi davomida Markaziy depozitariyga qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan qimmatli qog'ozlar

chiqarilishlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha 187 ta hujjatlar to'plami kelib tushdi.

Hisobot davrida Markaziy depozitariyda jami 145 ta, shu jumladan 64 – birlamchi, 69 – qo'shimcha qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari va 12 ta korporativ obligatsiya chiqarilishlari hisobga olindi.

Tugatilganligi munosabati bilan 9 emitentning qimmatli qog'ozlar chiqarilishlari, 25 emitent qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining qismi, shuningdek 4 emitentning obligatsiya chiqarilishlari Markaziy depozitariy hisobidan chiqarildi.

2024 yilning 9 oyi davomida Markaziy depozitariy tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarini o'tkazish, shuningdek boshqa korporativ harakatlarni amalga oshirish uchun 2 380 ta reyestr shakllantirildi. 716 mahalliy emitentning 1 024 turdagi qimmatli qog'ozlariga xalqaro kodlar berildi.

III. Investitsiya fondlariga xizmat ko'rsatish

Markaziy depozitariy investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan va ularga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlar hisobini yuritish bo'yicha mutlaq funksiyalarini bajargan holda, 2 ta XIF va 7 ta investitsiya fondlariga xizmat ko'rsatadi.


Hisobot sanasiga investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi 2,32 mlrd.so'mni, investitsiya fondlari tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar hajmi esa 9,5 mlrd.so'mni tashkil etdi. Investitsiya fondlari aksiyadorlari soni 51 026 tani, shu jumladan 50 986 ta jismoniy va 40 ta yuridik shaxslarni tashkil qildi.

IV. Investitsiya vositachilari bilan hamkorlik yuritish

Markaziy depozitariy, shuningdek 56 investitsiya vositachilari va ularning mijozlarining qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlari hisobini yuritadi.


01.10.2024 yil holatiga ko'ra, investitsiya vositachilarining depo hisobvaraqlarini ochgan mijozlari soni 704,20 mingni, shu jumladan 57,89 ming yuridik va 646,31 ming jismoniy shaxslarni tashkil etdi. O'tgan yilning ayni shu davriga qiyoslaganda, depo hisobvaraqlari soni 1 foizga ortgan.

Investitsiya vositachilari tomonidan hisobi yuritiladigan qimmatli qog'ozlarning umumiy hajmi nominal qiymati bo'yicha: 22 226,02 mlrd. so'm miqdordagi 7 433,10 mlrd. dona aksiyani va 1 085,81 mlrd. so'm miqdordagi 0,98 mln. dona korporativ obligatsiyani tashkil etdi.



O'tgan yilning ayni shu davriga nisbatan investitsiya vositachilari tomonidan hisobi yuritiladigan qimmatli qog'ozlar hajmi 47,96 foizga ortdi.

Markaziy depozitariy tomonidan hisobot davrida 18 105,51 mlrd.so'm miqdordagi 149,58 mlrd. dona qimmatli qog'ozlar bo'yicha 143 ta birjadan tashqari bitimlar ro'yxatga olindi.



V. Deponentlarning yagona bazasi

Markaziy depozitariy tomonidan yuritiladigan deponentlarning yagona bazasi 01.10.2024 yil holatiga 821 169 ni, shu jumladan 757 965 jismoniy shaxsni va 63 204 yuridik shaxsni tashkil etdi. Deponentlarning yagona bazasida ro'yxatga olingan shaxslar soni o'tgan yilning ayni shu davriga nisbatan 27 344 taga ortdi.



VI. Strategik rivojlantirish

Markaziy depozitariy tomonidan "Kapital bozorini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-291-son qarorida belgilangan vazifalarni bajarish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Xususan, 2024 yil 29 martda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJning vakillik hisobvaragi ochildi.

Markaziy depozitariyning avtomatlashtirilgan bank tizimi va Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi o'rtasida integratsiya yo'lga qo'yildi.

"Toshkent" fond birjasi va 30 dan ziyod investitsiya vositachilari uchun pul hisobvaraqlari ochildi va korporativ qimmatli qog'ozlar bo'yicha savdo natijalari bo'yicha pul mablag'laridagi hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha sinov operatsiyalari o'tkazildi.

Markaziy depozitariy tomonidan hisobot davrida 5 ta aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari bo'yicha dividendlar to'lovi amalga oshirilib, shu jumladan jismoniy shaxs aksiyadorning dividendlari Markaziy depozitariyning mobil ilovasi orqali to'lab berildi.

Markaziy depozitariy va davlat qimmatli qog'ozlari bozori ishtirokchilari (dilerlari) o'rtasida davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha depo hisobvaraqlarini yuritish bo'yicha shartnomalar imzolandi va 2024 yil 1 iyuldan boshlab, Markaziy depozitariyda davlat qimmatli qog'ozlarining hisobi yuritilishi ta'minlandi.

Markaziy depozitariyning xalqaro va xorijiy markaziy depozitariylar bilan vakillik munosabatlari o'rnatishini ta'minlash maqsadida hisobot davrida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

SWIFT tarmog'idan to'laqonli foydalanish uchun SWIFT kanalini sozlash bo'yicha ishlar yakunlandi va ISO 15022 va ISO 20022 standartlariga muvofiq SWIFT formatlari ishlab chiqildi;

Markaziy depozitariy va Bank of Georgia o'rtasida davlat qimmatli qog'ozlarini hisobini yuritish bo'yicha depozitar shartnomasi imzolandi;

Markaziy depozitariyda Bank of Georgia va OTP Bank uchun chet ellik nominal saqllovchi hisobvarag'ini ochish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.

Markaziy depozitariyning 2024-2028 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan yagona depozitar dasturiy kompleksini yaratish loyihasi doirasida quyidagi tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi:

"Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJning yagona depozitar kompleksini yaratish va joriy etish bo'yicha texnik topshiriq va konsepsiya ishlab chiqish, modernizatsiya loyihasi strategiyasi, funksional, texnik, texnologik arxitektura va integratsiyaviy standartlarni ishlab chiqishga doir konsalting xizmatlarini xarid qilish bo'yicha tanlov o'tkazildi;

yagona depozitar dasturiy kompleksning funksional talablari yuzasidan konsalting kompaniyasi (tanlov g'olibi) bilan muzokaralar o'tkazilib, birlamchi vazifalar va chora-tadbirlar majmui belgilab olindi.

VII. Tavakkalchiliklarni boshqarish va komplayens-nazorat

Hisobot davrida xorijiy qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariylari tomonidan KYC va muvofiqlik tartib-qoidalari jarayonlarini o'tkazish tajribasi o'rganildi. O'rganish natijalariga ko'ra chet ellik nominal saqllovchilarning Anketasi ishlab chiqildi.

Shuningdek hisobot davrida Markaziy depozitariyda "Komplayens-nazorat" faoliyatini yo'lga qo'yish, huquqiy asosini yaratish maqsadida quyidagi ichki-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosat;
- Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;
- Manfaatlarni to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom;
- Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti;
- Xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma;
- Kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma;
- Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma;
- Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti;
- Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom;

- Xodimlarning korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Nizom.

"DYaB" AATda nazoratchi tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borildi. "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJ xodimlari uchun etika va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ichki nazorat yo'nalishlari bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Bundan tashqari, Markaziy depozitariyning rasmiy veb saytida (<https://uzcsd.uz/>) "Korrupsiyaga qarshi kurashish" sahifasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Markaziy depozitariyda xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan o'quv seminari hamda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni mazmun-mohiyatini tushuntirishga bag'ishlangan seminar tashkil etildi. Ushbu tadbirda Markaziy depozitariy xodimlariga qonunning asosiy maqsadi va amal qilish sohasi, manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishining asosiy sabablari, xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish borasidagi huquq va majburiyatlari, cheklovlar, jumladan, qonun talablarini buzganlik uchun belgilangan javobgarlik choralari yuzasidan batafsil tushuntirishlar berildi.

VIII. Me'yoriy-uslubiy bazani takomillashtirish

Markaziy depozitariyning faoliyati hamda yangi funktsiyalari bilan bog'liq operatsiyalarini amalga oshirishi uchun huquqiy asos yaratish maqsadida hisobot davrida quyidagi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi:

"Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida pul mablag'lari hisobini yuritish va hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalari" Markaziy bank Boshqaruvining 2024 yil 18 maydagi 17/3-son qarori bilan tasdiqlandi;

Davlat qimmatli qog'ozlarining hisobini ta'minlash maqsadida Markaziy depozitariy tomonidan "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJda O'zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog'ozlarini depozitar hisobga olish va saqlashning vaqtinchalik reglamenti";

"Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJning chet ellik nominal saqlovchilarga xizmat ko'rsatishning vaqtinchalik tartibi" tasdiqlandi va Istiqbolli loyihalar milliy agentligi bilan kelishildi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrda 1016-son "O'zbekiston Respublikasining davlat g'aznachilik majburiyatlari va obligatsiyalarini muomalaga chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha hujjat loyihasi tayyorlandi va Markaziy bankka kiritildi.

Markaziy depozitariy tomonidan korporativ qimmatli qog'ozlar bo'yicha kliring operatsiyalarini amalga oshirishning ta'minlash maqsadida "Qimmatli

qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJda korporativ qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar bo'yicha hisob-kitoblarni (kliring) amalga oshirish qoidalari" loyihasi tayyorlanib, Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga taqdim etildi.

IX. Korporativ boshqaruv

Hisobot davrida Kuzatuv kengashining tasdiqlangan ish rejasiga asosan Kuzatuv kengashining 13 ta majlisi o'tkazildi va quyidagilar tasdiqlandi:

Kuzatuv kengashi huzuridagi qo'mitalar tarkibi;

Markaziy depozitariyning 2024 yilga mo'ljallangan biznes-rejasi;

2024 yilning ikkinchi yarim yilligi uchun rejalashtirilgan davlat xaridlari (tovarlar, ishlar, xizmatlar) jadvali;

"Jamiyat ishchilariga ish haqi, moddiy rag'batlantirish va boshqa to'lovlarni to'lash to'g'risida"gi hamda "Bosh direktorning shaxsiy ustamasi miqdorini belgilash to'g'risida"gi nizomlar, Kuzatuv kengashi huzuridagi qo'mitalar faoliyatini tartibga soluvchi nizomlar hamda Korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati, Kadrlar siyosati, Hisob siyosati va Tarif siyosati.

Hisobot davrida "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyatining yagona aksiyadori tomonidan quyidagi qarorlar qabul qilindi:

Markaziy depozitariyning yangi tashkiliy tuzilmasi va Ustavini (yangi tahrirda), "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomni (yangi tahrirda), "Ijroiya organiga haq to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida;

"Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyatini 2024-2028 yillarda rivojlantirish strategiyasini, 2023 yil uchun yillik hisobotni tasdiqlash to'g'risida;

2023 yil yakunlari bo'yicha majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishga auditorlik tashkilotini, uning xizmatlari uchun to'lanadigan haq miqdorini va u bilan shartnoma tuzishni tasdiqlash to'g'risida;

2023 yil yakunlari bo'yicha sof foyda taqsimoti to'g'risida.

X. Texnologik va dasturiy majmua

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 sentyabrdagi PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Qimmatli qog'ozlarning Markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyatiga hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Markaziy bankda vakillik hisobvarag'i ochildi, shuningdek, Markaziy depozitariyning xos raqamlari banklararo to'lov tizimida ishtirok etish uchun 2024 yilning 29 martidan "O'zbekiston Respublikasi banklari" hamda "Banklarning filiallari va bank xizmatlari ofislari" elektron ma'lumotnomalariga kiritildi.

Hisobot davrida shuningdek, Markaziy depozitariy mutaxassislari tomonidan mijozlarning depo hisobvaraqlaridagi qoldiqlar to'g'risidagi

ma'lumotlarni olish uchun mobil ilova bo'yicha API ishlab chiqildi. Bank telekommunikatsiya tarmog'ini sozlash ishlari amalga oshirildi.

Joriy yilning 9 oyi davomida Markaziy depozitariy tomonidan pul mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha dasturiy ta'minotni olishga doir tanlov o'tkazildi va avtomatlashtirilgan bank tizimi (ABT)ni xarid qilish bo'yicha tegishli shartnoma tuzildi. Shuningdek, ABT serverlarini o'rnatish va sozlash ishlari amalga oshirildi.

Hisobot davrida Markaziy bankda Markaziy depozitariy uchun vakillik hisobvarag'i ochildi va Markaziy bankning banklararo to'lov tizimidan foydalanish imkoniyati ta'minlandi, avtomatlashtirilgan bank tizimi joriy etildi.

O'zRVB bilan davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha ma'lumotlarni uzatish bo'yicha texnik yo'riqnoma ishlab chiqildi. Shuningdek, DepoMAX dasturiy ta'minoti sinovdan o'tkazish bo'yicha ishga tushirildi.

Markaziy depozitariyning veb-saytlarini takomillashtirish va yangi funksiyalarni qo'shish bo'yicha ishlar olib borildi.

Ichki ishlar vazirligi va Markaziy depozitariyning ma'lumotlarini o'zaro taqqoslashni yangilash moduli yaratildi.

Markaziy depozitariyning mobil ilovasi ishlab chiqishni yakunlash ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, hisobot davrida Markaziy depozitariyning IT-siyosati ishlab chiqildi.

Markaziy depozitariyning UzCSD mobil ilovasi joriy etildi.

Dividendlar to'lovi uchun reyestr bo'yicha "ABT" AATga ma'lumotlarni uzatish uchun "EBD" AAT moduli takomillashtirildi.

Markaziy depozitariy va Elektron hukumat, Hisob palatasi, Davlat soliq qo'mitasi, AUGA va Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi bilan hamkorlikda texnik yo'riqnomalar ishlab chiqildi.

"ABT" avtomatlashtirilgan axborot tizimining DepoMAX bilan, shuningdek, UzCSD mobil ilovasi va YADTK bilan integratsiyalashuvi amalga oshirildi.

XI. Faoliyatni texnik va axborot qo'llab-quvvatlash

Markaziy depozitariy bazasi ma'lumotlarining zaxira nusxalarini yaratish maqsadida SUBD INFORMIKSni hamda pochta tizimini ma'muriy boshqarish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Axborotni tezkor qayta ishlash bo'yicha sozlash ishlari amalga oshirildi.

Hisobot davrida Markaziy depozitariyning texnik bazasini xatlov ishlari amalga oshirildi.

Yagona dasturiy-texnik kompleksda ma'lumotlar almashish bo'yicha ish yuritish tashqi kanallar orqali tashkil qilindi. Undan tashqari, YaDTKning barqaror ishlashini ta'minlash uchun himoyalangan VPN aloqa kanali yordamida ish olib borildi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida zamonaviy talablarga javob beradigan Kaspersky Total Security antivirus dasturiy ta'minotining litsenziyasi yangilandi, shuningdek Firewall Fortigate dasturiy ta'minotini sozlash ishlari amalga oshirildi.

XII. Kadrlar siyosati

Markaziy depozitariyning kadrlar siyosati yuqori malakali mutaxassislarni maksimal darajada qo'llab-quvvatlash, iqtidorli va istiqbolli kadrlar bilan ishlash, mehnatni rag'batlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Shu munosabat bilan Markaziy depozitariyda xodimlarning malakasini oshirishga, zamonaviy texnologiyalar va xorijiy tillarni o'qitishga qaratilgan tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Dastavval qimmatli qog'ozlar bozori, korporativ boshqaruv, axborot texnologiyalari va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiq hisobotlar tayyorlash kabi yo'nalishlarda xodimlarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda Markaziy depozitariy xodimlarining 6 nafarida qimmatli qog'ozlar bozorining 1 toifa mutaxassisi malaka guvohnomasi, 12 nafarida esa qimmatli qog'ozlar bozorining 2 toifa mutaxassisi malaka guvohnomasi mavjud. 8 nafar xodim SWIFT Smart platformasida SWIFT tizimi bilan ishlash sertifikatiga, 3 ta xodim ORACLE ma'lumotlar bazasini boshqarish bo'yicha sertifikatga, 3 nafar xodim korporativ menejer sertifikatiga, 2 nafar xodim "Moliya va buxgalterlik hisobi", "Sertifikatlangan amaliyotchi buxgalter" (CAP), "Moliyaviy hisob" yo'nalishlari bo'yicha sertifikatlarga ega.

Ayni paytda Markaziy depozitariyning besh nafar xodimi Toshkent shahridagi oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limlarida tahsil olishmoqda.

XIII. Xalqaro hamkorlik

Markaziy depozitariyning xalqaro va xorijiy markaziy depozitariylar bilan vakillik munosabatlarini o'rnatishni ta'minlash, kontragentlarga qo'yiladigan talablarni aniqlash hamda yirik xalqaro markaziy depozitariylar va kastodianlar bilan muloqotni davom ettirish maqsadida hisobot davrida:

"Citybank" kastodian-banki vakillari bilan o'tgan uchrashuvda xalqaro hamkorlik, vakillik munosabatlarini yo'lga qo'yish, xususan, depozitar tilxatlarni chiqarish masalalari t o'g'risida;

OTP Group vakillari bilan o'tgan uchrashuvda Markaziy depozitariy va OTP Group o'rtasidagi hamkorlikning muhim jihatlari yuzasidan;

Qozog'iston Markaziy depozitariysi vakillari bilan uchrashuvda kapital bozorida amalga oshirilayotgan islohotlar va o'zaro hamkorlik imkoniyatlari masalalari bo'yicha muhokamalar o'tkazildi.

Shu bilan birga 2024 yilning 9 oyi davomida Markaziy depozitariy vakillari quyidagi xalqaro tadbirlarda ishtirok etdilar:

O'zbekiston Markaziy banki va O'zbekiston Respublika valyuta birjasi vakillaridan bilan birgalikda O'zbekiston delegatsiyasi "Clearstream"ning Markaziy, Sharqiy Yevropa va MDH davlatlari bo'yicha 18-sammitida ishtirok etdi.

O'zbekiston delegatsiyasi vakillari sammit doirasida "Clearstream" bosh direktori Samuel Rayli va "Clearstream"ning Markaziy Osiyo bo'yicha hududiy direktori Isa Ribeyro bilan muzokara o'tkazdilar. Muzokarada "Clearstream" xalqaro markaziy depozitariysi va "Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi" AJ o'rtasida vakillik munosabatlarini o'rnatish istiqbollari muhokama qilindi.

Sammit ishi davomida O'zbekiston delegatsiyasi vakillari shuningdek, «OTP Bank» (Vengriya) vakillari bilan uchrashuv o'tkazdilar. Uchrashuvda «OTP Bank»ning O'zbekiston kapital bozoriga investitsiyaviy institut sifatida kirish masalasi bo'yicha o'zaro fikr almashildi.

Ispaniyaning Madrid shahrida bo'lib o'tgan ANNA (Milliy raqamlash agentliklarining assotsiatsiyasi)ning yillik umumiy yig'ilishida ishtirok etdi.

Qozog'istonning Almati shahrida bo'lib o'tgan Osiyo-Tinch okeani Markaziy depozitariylari assotsiatsiyasining (ACG) 26-yillik yig'ilishida ishtirok etdi. Tadbir davomida ishtirokchilar xalqaro moliya bozorlarini rivojlantirish, jumladan, xalqaro hamkorlik, T+1 hisob-kitob rejimiga o'tish va sohani raqamlashtirish bo'yicha dolzarb masalalarni muhokama qildilar.